https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

Yuldosheva Saodat Azizovna
Samarqand davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti
Baxtiyorova Munavvar Baxtiyorovna
Oriental universiteti Samarqand kompusi
Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi o'qituvchisi

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR MUHITIDA OILA VA BOLA TARBIYASI

Annotatsiya. Maqolada raqamli texnologiya va ularning insonlar hayotida tutgan o‘rni, bolalarning rivojlanishiga ta’siri, raqamli texnologiyalarning ijobiy va salbiy tomonlari, oilalarda raqamli madaniyat tushunchasini rivojlantirish ko‘nikmasi, bolalarda raqamli savodxonlik malakasini rivojlantirish kabi bir qator masalalar yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan. Nazariy va amaliy ko‘rsatkichlar asosida yakuniy xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalar, ta’lim tizimi, raqamli transformatsiya, ta’limda samaradorlik.

Аннотация. В статье представлены мнения по ряду вопросов, таких как цифровые технологии и их роль в жизни человека, их влияние на развитие детей, положительные и отрицательные стороны цифровых технологий, развитие цифровой культуры в семьях и развитие навыков цифровой грамотности у детей. Заключительные выводы сделаны на основе теоретических и практических показателей.

Ключевые слова: цифровые технологии, цифровизация, инновационные технологии, система образования, цифровая трансформация, эффективность в образовании.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

Abstract. The article presents opinions on a number of issues, such as digital technologies and their role in human life, their impact on children's development, the positive and negative aspects of digital technologies, the development of digital culture in families, and the development of digital literacy skills in children. Final conclusions are given based on theoretical and practical indicators.

Keywords: digital technologies, digitalization, innovative technologies, education system, digital transformation, effectiveness in education.

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda inson shaxsining rivojlanishi borasida ulkan islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, raqamli texnologiyalarning ta’lim tizimiga joriy etilishi davrimizning dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ta’limda raqamlashtirish siyosati yanada jadallashdi[1]. Bu jarayon, shubhasiz, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy hayot bilan bir qatorda, oilaning ichki muhitiga va bola tarbiyasiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, mamlakatimiz kelajagi va ravnaqida muhim o‘rin tutadigan oila va bolalar tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish; har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish; sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash; global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish; adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash[2] rivojlanayotgan yurtimizning asosiy strategiyalaridan biridir. Bu strategiyalar doirasida O‘zbekistonda raqamli

[1] O‘zbekiston Respublikasi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. https://strategy.uz
[2] O‘zbekiston Respublikasi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. https://strategy.uz

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

infratuzilma kengaymoqda. Raqamli texnologiyalar oilaviy hayot va bolalar tarbiyasiga chuqur kirib kelmoqda. Raqamli vositalar yordamida ota-onalar bolalar bilan o‘zaro muloqotni mustahkamlash, ta’limiy resurslarga erkin kirish, bola rivojlanishini nazorat qilish imkoniga ega bo‘lishmoqda. Shu bilan birga, raqamli muhit noto‘g‘ri foydalanilganda, bolalarda ijtimoiy izolyatsiya, intellektual passivlik va ruhiy muammolarni ham yuzaga keltirishi mumkin.

Raqamli vositalar – internet, mobil ilovalar, planshet va smartfonlar – bolalar tarbiyasining mazmuni va shakliga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Oilada ushbu vositalarning noto‘g‘ri yoki nazoratsiz qo‘llanilishi bolaning ijtimoiy-psixologik rivojlanishida bir qator muammolarga sabab bo‘lmoqda (Abduganiyeva, 2024)[3]. Jumladan, oilaviy muloqotning kamayishi, bolalarda raqamli qaramlik, hissiy sovuqqonik va tajovuzkorlik holatlarining ortishi kuzatilmoqda[4].

Ayni vaqtda O‘zbekistonda ko‘plab 3 yoshgacha, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar turli raqamli qurilmalardan foydalanmoqda, ammo ota-onalarning aksariyati bu vositalarning pedagogik va psixologik ta’siri haqida yetarli bilimga ega emas (Yulchiyeva, 2023)[5]. Shu sababli, oilada raqamli muhitda tarbiyaning zamonaviy yondashuvlarini o‘rganish, imkoniyat va tahdidlarni aniqlash hamda innovatsion yechimlarni ishlab chiqish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Ushbu kichik tadqiqotimizning maqsadi – raqamli texnologiyaning oilaviy tarbiya jarayoniga ta’sirini tahlil qilish, yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga xizmat qiladigan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, maqolada raqamli muhitda oila va bola tarbiyasining ijobiy va salbiy jihatlari, shuningdek, samarali strategiyalar tahlil qilinadi.

[3] Abduganiyeva D.A. (2024). Oilaviy tarbiyaning shaxsning hissiy holatiga ta’siri. // Oila va jamiyat ilmiy jurnali. oila-ilmiy.uz
[4] Abduganiyeva D.A. (2024). Oilaviy tarbiyaning shaxsning hissiy holatiga ta’siri. // Oila va jamiyat ilmiy jurnali. oila-ilmiy.uz
[5] Yulchiyeva D. (2023). Oila a’zolari o‘rtasidagi muloqot va raqamli vositalarning o‘rni. // Oila va jamiyat. https://oila-ilmiy.uz

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

2023-2025-yillarda O‘zbekistonda chop etilgan oila va bolalar tarbiyasi, raqamli texnologiyalar sohasidagi ilmiy maqolalar atroflicha o‘rganib chiqildi. Jumladan, Adashova (2025) oilaviy muhit va bolalar xulq-atvori munosabatlarini o‘rgangan tadqiqoti[6], Axmedova (2024) oilaning psixologik iqlimi va farzandlar tarbiyasi o‘rni[7], ilmiy markazlarda chop etilgan maqolalardagi oila ichidagi ma’naviy-axloqiy tarbiya muammolari, shuningdek, O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarning afzalliklari va cheklovlari (Safar Mustafoqulov, 2025)[8], ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning roli va raqamli savodxonlik (Aliyeva va Rasulova, 2025)[9], oliy ta’lim va maktab darajasida raqamli texnologiyalarning joriy etish usullari (Dushabayev, 2024)[10] kabi ilmiy izlanishlar o‘rganib chiqildi va tahlil doirasiga tortildi.

Manbalarga tayangan holda “SWOT tahlil” metodi asosida ta’lim tizimida raqamlashtirishning kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar hamda tahdidlar aniqlandi.

[6] Adashova F.S. (2025). Oilaviy muhit va oilaviy munosabatlarning bola xulq-atvoriga ta’siri. // Ilm-fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta’lim jurnali.
[7] Axmedova I.I. (2024). Bolani voyaga yetkazishda oila tarbiyasining o‘rni. // Tadqiqotlar.uz jurnali.
[8] Safar Mustafoqulov Eshboltaevich (2023). O'zbekistonda raqamli texnologiyalar: afzalliklar va kamchiliklar. Ta’limning zamonaviy transformatsiyasi, 1(1)
[9] Aliyeva N.M., Rasuleva M.R. (2025). Raqamli texnologiyalarning ta’limdagi o‘rni: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar. Yevraziyskij jurnal texnologiyalari va innovatsiyalari, 3(1), 24–28
[10] Dushabayev A.M. (2024). Raqamli texnologiyalar vositasida maktab ta’limini boshqarishning ilmiy yondashuvlari. Fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, Vol. 3 No 28

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

SWOT tahlil

KUCHLI TOMON	ZAIF TOMON
1) raqamli texnologiya orqali ta'lim resurslaridan keng foydalanish (onlayn darslar, ilovalar, til o'rganish imkoniyatlari); 2) bola uchun qiziq va interaktiv o'yin muhitini yaratish, IT va roboto-texnikasini rivojlanitirish (Screch, Khan akademiyasi); 3) raqamli vositalar yordamida bolalarning mustaqil o'rganish qobiliyatini yoshlikdan rag'batlantirish (duolingo, mathgame); 4) kelajak kasblari doirasida har bir shaxs imkoniyatlarini tahlil qila bilishi, o'z ustida ishlashi va masofadan turib o'qishi, kunning istalgan qismidan unumli foydalanish, vaqt tejamkorligi (Ibrat academy, qizlar akademiyasi, Ustoz AI); 5) uydan chiqmagan holda ishlash, o'qish, ijod qilish, pul topish, sayohatga chiqish imkoniyati mavjud; 6) uzoqdagi yaqinlar bilan masofaning onlayn yaqinligi (chatlar, video-qo'ng'iroqlar)ni ta'minlash.	1) ota-onalarning aksariyat qismining raqamli texnologiyalardan foydalanish-da yetarlicha bilim va ko'nikmalarning yetishmasligi; 2) ota-ona va bola o'rtasida jonli muloqotning kamayishi hamda bolalarda odamovilik, odamlardan uzoqlashish holati kuzatilishi, kirishimlilik va amaliy tajribalarning susayishi; 3) oflayn (tabiiy) muloqotning kamayishi, nutqda nuqsonlarning paydo bo'lishi; 4) ekran oldida keragidan ko'p bo'lish oqibatida jismoniy salomatlikka jiddiy zarar yetishi, ko'z, asab va harakat faoliyatiga salbiy ta'siri, nurlanish ehtimolining ortishi; 5) raqamli vositalarda zo'ravonlik, buzg'unchi kontentlarga, salbiy g'oylarga duch kelish xavfi.
IMKONIYAT	**TAHDID**
1) ota-onalar va pedagoglar uchun maxsus raqamli ta'lim-tarbiya platformalari yaratish imkoniyati; 2) raqamli savodxonlik bo'yicha oilaviy seminar-treninglar tashkil etish, ushbu texnologiyalardan to'g'ri, unumli va samarali foydalanish madaniyatini shakllantirish; 3) raqamli texnologiyalardan foydalanish reglamenti va unumli foydalanish texnikasini ishlab chiqish, bolalarning yoshiga mos reglament qoidalarini yaratish; 4) bolalarning yoshiga mos interaktiv ilovalar ishlab chiqish; 5) bolalarni milliy qadriyatlarga chorlaydigan, ularning ongi va ruhiyatiga ijobiy ta'sir qiladigan milliy kontentlarni ko'paytirish; 6) kontentlarni nazorat qiladigan platformalarni ishlab chiqish.	1) Barcha yoshdagi insonlarda raqamli texnologiyalarga qaramlikning rivojla-nish xavfi ortishi; 2) internetdagi nomaqbul kontent bolalarga salbiy axloqiy ta'sir ko'rsatishi; 3) raqamli vositalar ta'sirida oilaviy va ijtimoiy muhitning salbiy tomonga o'zgarishi xavfi; 4) bolani qarovsiz qoldirish oqibatida o'zini nazorat qila olmasligi, ba'zi hollarda bolaning imkoniyatlarini cheklash xavfi; 5) bolalarda raqamli texnologiyalardan foydalanishni kuchli istagi oqibatida salbiy odatlarning shakllanishi (o'jarlik yolg'onchilik, o'g'irlik) 6) raqamli texnologiyalar vositasida olinadigan axborotlarning cheksizligi va ularni maqsadsiz (ba'zida maqsaddan og'ishgan) holda ko'zdan kechirganda tahlil, analiz qila bilmay, vaqtni behuda va samarasiz o'tkazish.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

“SWOT tahlil” orqali “kuchli” tarafda davlat tomonidan raqamli islohotlarga e’tibor va yoshlarning texnologiyaga qiziqishi, “zaif” tarafda esa ayrim hududlarda internet infratuzilmasining sustligi keltirib o‘tildi.

Izlanish davomida Google Formsda 100 nafardan ortiq respondent orasida so‘rovnoma o‘tkazildi. Maqsad – ota-onalar farzandlarining internetdan foydalanish odatlari va nazorati haqida fikrllairni aniqlash bo‘lib, bu orqali raqamli texnologiyalarning bola va oila tarbiyasiga ko‘rsatadigan ta’sirini o‘rganish edi. So‘rovnoma anonim bo‘lib, ko‘ngilli ishtirokchilarga 10ta savol (2tasi oddiy, 8tasi asosiy) berildi.

Ishtirokchilarning soni 113 nafarni tashkil etdi, shundan 20-30 yoshdagilar – 24,8%, 31-40 yoshlilar 58,4 %, 41-50 yoshlilar 15 % ni tashkil etdi.

Farzandingiz internetdan kuniga taxminan qancha vaqt foydalanadi degan savolga 30,4% ota-onalar 0-30 daqiqa, 20,5% esa 2 soatdan ko‘p deb belgilashgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, oilalarimizda raqamli vositalardan foydalanish madaniyati izga tushmoqda. So‘rovnomada qatnashgan ota-onalarning 36,3% farzandi internetda multfilm ko‘rishini, 18,6% o‘yin o‘ynashini, 20,4% online darslar qilishini, 15,9% youtube, Instagram tomosha qilishini aytib o‘tganlar. Bu ko‘rsatkich bir qarashda jiddiy ko‘rinmasa-da, ammo bolalar internetda ta’lim va tarbiyasiga ta’sir qiluvchi nimalarni ko‘rishi, kattalar nazorati ostida va ularning texnikalardan qanday foydalanayotgani mavhum bo‘lib qolmoqda. Internetdagi kontentlarni nazorat qilasizmi, degan savolga 54,9% kishi “ha” deb, 33,6% “ba’zida”, 8,8% “yo‘q” deb javob bergan. Bundan ko‘rinib turibdiki, ota-onalar raqamli texnologiyalarning ijobiy va salbiy tomonlari haqida ancha xavotirda va savodxonlik darajasi ham oshib bormoqda.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026




7-savolimizda ko‘rib turganingizdek, 54,9% ota-onalar internet vositalari qisman farzandiga ta’lim-tarbiya berayotganini ko‘rsatmoqda. Bu esa hali ham raqamli vositalardan foydalanishda qisman bilimlarning yetishmasligi, sifatli milliy kontentlarni ko‘paytrish va raqamli texnologiyalardan foydalanish madaniyatini targ‘ib qilishni anglatadi.



Bu savolimizda esa katta xavf mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Bu kattalar tomonidan xavotir borligini ko‘rsatmoqda. Bolalarning aqliy, jismoniy, ruhiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotligini anglatadi va bu xavfning oldini olish uchun aksariyat ota-onalarda yetarli savodxonlik yo‘llari topilmayotganini bildiradi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026



So‘rovnoma natijasiga ko‘ra ota-onalarning 58% o‘zbek tilida sifatli, yoshga mos ta’limiy ilovalar va videodarslar yetishmasligini aytib o‘tishgan. Bu holat esa bolalarning internetda asosan chet tilidagi yoki nazoratsiz kontentlarni ko‘rishiga sabab bo‘layotganini anglatadi. Bundan tashqari, ota-onalarda ham raqamli texnologiyalardan foydalanish madaniyati yetarlicha shakllanmaganini bildiradi. So‘rovnoma va izlanishlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar oilaviy hayotda va, ayniqsa, bola rivojlanishida, ta’lim-tarbiyasida sezilarli o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Ota-onalarning aksariyat qismi internet va raqamli qurilmalar orqali bola uchun ta’limiy imkoniyatlar mavjudligini, undan unumli foydalanayotganini aytib o‘tsalar-da, lekin shu imkoniyatlar bilan birga jiddiy tahdidlar, xavf va qaramlik ham borligini tan olishmoqda.

Bola kun davomida raqamli texnologiyalar qarshisida o‘tkazayotgan vaqtining umuman nazoratsiz ekanligi ota-onalarning bugungi kundagi dolzarb muammosi sifatida ko‘rsatildi. Bu esa tadqiqot natijalari Qurbonova (2023)[11] tomonidan olib borilgan ishlar bilan mos tushishini, unda raqamli texnologiyalardan me’yoridan ortiq ishlatilishi bolalarda ruhiy charchoq, giperaktivlik va uyqusizlikka olib kelishi ko‘rsatilgan. So‘rovnomada ishtirokchilarning 75% aynan shu holatni muammo deb bilgan.

[11] Siddiqov I.M. (2023) Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.// kokanuni.uz 152-155-bet.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

O‘zbek tilidagi sifatli ta’limiy ilova, bolalarga mos kontent va videodarslarning yetishmasligi ota-onalarni chet tilidagi kontentlardan foydalanishga majbur qilmoqda. Ayrim hollarda til o‘gatish maqsad qilingan bo‘lib chiqmoda. Bu esa hali to‘la shakllanmagan bolalar begona madaniyatning erta bosqichda singdirilishiga, til aralashuviga, qadriyatlar krizisiga sabab bo‘lmoqda. Oqibatda bola o‘z nutqini yo‘qotishigacha olib kelmoqda. D.Yulchiyevanin[12] fikricha, bu yosh avlod rivojlanishida raqamli globallashuvning eng sezilarli tahdidlaridan biri hisoblanadi.

Muhokama.

Tadqiqotimizda aniqlanishicha, ota-onalarning aksariyat qismi raqamli xavfsizlik haqida umumiy tasavvur va ma’lumotga ega bo‘lsa-da, lekin amaliy chora ko‘rmagan. Bu holat A.Dushabayev (2024)[13] tomonidan o‘rganilgan pedagogik yondashuvlar bilan deyarli hamohangdir. Ya’ni, oilalarda yetarlicha raqamli texnologiyalarga oid savodxonlik darajasi, raqamli vositalardan to‘g‘ri va unumli foydalanish darajasi past bo‘lishi bolalarning bevosita xavf ostida qolishiga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli ota-onalarga maxsus treninglar, amaliy qo‘llanmalar va bolalar uchun nazorat qilinadigan kontent platformalarini kengroq tatbiq etish taklif etiladi.

Ishtirokchilarning faqat kichik qismi (20%) raqamli texnologiyalrni qo‘llashda vaqt nazorati yoki kontent filtrlovchi ilovalar haqida bilib, ularni amalda qo‘llab kelayotganini aytishgan. Bu esa raqamli globallashub jarayonida mavjud texnologik imkoniyatlardan foydalanish ko‘nikmasining yetarli emasligini ko‘rsatadi. Shu sababli, raqamli texnologiyalar uchun innovatsion yondashuvlarni ommalashtirish, o‘zbek tilida sifatli kontentlarni, ayniqsa, bolalar uchun kerakli, bilim beruvchi, hayotga tayyorlovchi multfilm, ilovalar, platformalarni yaratish, ota-onalarda raqamli madaniyat ko‘nikmasini shaklantirish dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

[12] Yulchiyeva D. (2024). Raqamli madaniyat va oila qadriyatlari o‘rtasidagi ziddiyatlar. // Oila va jamiyat jurnali, 45–49-bet
[13] Dushabayev A.M. (2024). Pedagogik yondashuvlarda raqamli tarbiya o‘rni. // Fanlararo ilmiy jurnal, 55-60-bet.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda raqamli texnologiyalar muhitida oila mustahkamligi va bolalar ta’lim-tarbiyasi dolzarb muammo bo‘lib turibdi. Agar bu borada me’yor va metodikalarga amal qilinmasa, raqamli texnologiyalar salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, raqamli texnologiyalardan foydalanish madaniyatini shakllantirish muhim. Yoshlar ishlari agentligi tomonidan yaratilayotgan bir qator platformalar “Bek va Lola”, “Ibrat academy”, “Mutolaa” kabi milliy kontentlarni ko‘paytirish, bolalarning rivojlanishiga to‘sqinlik qilmaydigan “Scratch”, “Khan Academy”, “Khan Kids”, “Duolingo”, “Math Game” kabi ilovalardan samarali va me’yorida foydalanish metodikasini ota-onalarga yetkazish, “TetapoyaTV” kabi *youtube* kanallar orqali ota-onalarga ilmiy asosda bilim berishga yo‘naltirish, individual rivojlanishga xizmat qiluvchi o‘yinlarni targ‘ib qilish maqsadga muvofiq.

Xulosa.

Raqamli texnologiyalar zamonaviy oilalarning ajralmas qismiga aylangan bo‘lsa-da, bu jarayon oila mustahkamligi va farzand tarbiyasida tizimli, pedagogik va axloqiy nazorat asosida olib borilmasa, salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ota-onalar raqamli vositalar orqali ta’limiy va rivojlantiruvchi imkoniyatlarga ega bo‘layotgan bo‘lsa-da, shu bilan birga bolalar salomatligi, axloqiy rivoji va ijtimoiy xulq-atvorida salbiy ta’sirlar kuzatilmoqda. Shuning uchun raqamli vositalarning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, tahdidlarni kamaytirish va innovatsion yechimlarni yo‘lga qo‘yish zarur. Izlanishlardan aniqlanishicha, ota-onalarning ko‘pgina qismi raqamli texnologiyalarni nazoratsiz ishlatishga, farzandlarini ham nzaoratsiz qoldirishga majbur bo‘lmoqda. Bunga sabablardan biri – yetarli darajadagi raqamli savodxonlikning yo‘qligi, o‘zbek tilidagi sifatli kontentning kamligi va texnologik nazorat mexanizmlaridan foydalanishning pastligi bo‘ldi.

Shunday ekan, quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- ota-onalarga mo‘ljallangan raqamli savodxonlik bo‘yicha treninglar tashkil etish;

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

- mahalliy, milliy madaniyatimizga mos kontentlar (ilova, platforma, video) ishlab chiqish va ko‘paytirish;

- ta’lim tashkilotlarida “Raqamli tarbiya” modulini joriy etish;

-bolalarda raqamli texnologiyalardan ongli foydalanish madaniyatini kichiklikdan singdirish maqsadida maxsus metodikalar va ota-onalar uchun qo‘llanmalar ishlab chiqish va ulardan foydalanishni keng targ‘ib qilish;

- o‘qituvchi, pedagoglar, ilm insonlari, olimlar tomonidan raqamli texnologiyaning imkoniyatlari va undan oqila foydalanish meyorlari haqida keng targ‘ibot ishlarini olib borish;

- 3 yoshgacha bolalarga umuman raqamli vositalarni bermalik to‘g’risida maxsus qonun ishlab chiqish;

Xulosa qilib aytganda, raqamli muhit – bu inkor qilib bo‘lmaydigan haqiqatdir. Ammo u bola va oila hayotiga salbiy emas, ijobiy ta’sir ko‘rsatishi uchun zarur bilim, ko‘nikma va ijtimoiy muhit shakllantirilishi zarur.

Raqamli muhitda bola tarbiyasini to‘g‘ri tashkil etish uchun ota-onalar, pedagoglar va jamiyat birgalikda harakat qilishi zarur. Raqamli texnologiyalar vositasida bolalarning ma’naviy, aqliy va psixologik rivojlanishiga xizmat qiladigan raqamli madaniyat asoslarini shakllantirish – bugungi kunning muhim vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dushabayev A.M. (2024). Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish. Fanlararo ilmiy jurnal, №1, 55-60-bet.
2. Yulchiyeva D. (2024). Raqamli madaniyat va oila qadriyatlari o‘rtasidagi ziddiyatlar. “Oila va jamiyat” jurnali, №2, 45-49-bet.
3. Siddiqov I.M. (2023) Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari. 152-155-bet. kokanuni.uz
4. Hasanov Sh.M. (2022). Bolalar uchun interaktiv texnologiyalarning o‘rni. Pedagogik innovatsiyalar jurnali.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

5. UNESCO (2021). Digital literacy in early childhood education: global guidelines. https://unesco.org
6. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (2023). Bolalarni raqamli xavfsizlikka o‘rgatish bo‘yicha metodik qo‘llanma. – Toshkent.
7. Omonov H.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat. – T.: Iqtisodiyot va moliya, 2009, 29-bet.
8. Azizovna, Y. S. (2025). Uzluksiz ta’lim bosqichlarida uzviylik masalasi (“Adabiyot” fani o ‘quv dasturi misolida). *Ustozlar uchun*, *1*(1), 761-765.
9. Азизовна, Ю.С. (2025). Юсуф Хос Ходжибнинг «Кутадгу билиг» асари ёшлар манавий камолоти ва ахлокий кадриятлар тимсоли. *Устозлар учун* , *1* (1), 537-539.
10. Nizomidinovna, S. D., & Azizovna, Y. S. (2025). O‘quvchilarning o‘qish savodxonligi ko ‘nikmasini rivojlantirish (hikoyalarni o ‘qitish asosida). *Ustozlar uchun*, *1*(1), 862-866.
11. Азизовна, Ю.С. (2025). Исажон Султон хикояларида новаторлик. *Устозлар учун* , *1* (1), 478-481.
12. Azizovna, Y. S. (2025). Bir hikoya tahlili (Abdusaid Ko ‘chimovning “Binafsha “hikoyasi asosida). *Ustozlar uchun*, *1*(1), 508-510.
13. Yuldosheva, S. (2024). Xalq qissalarida Hazrati Xizr alayhissalom obrazi. *Farg'ona davlat universiteti*, (5), 33-33.
14. Азизовна, Ю.С. Развитие познавательных навыков учащихся в процессе языкового образования. *JournalNX* , 514-516.
15. Азизовна, Ю.С. Формирование чувства уважения у студентов. *Журнал NX* , 1026-1028.
16. Азизовна, Ю.С. (2023). Миллий дастур талаблари асосида узбек тилини о'китишнинг самарадорлиги. *фан, талим ва амалийот интеграцияси* , 661-664. Получено с https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/1256.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 29.01.2026

17. Azizovna Y.S. Study of folktale in literature and its relation to the epic genre. Central European Management Journal 31 (No. 03 (2023)), 476-482 https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/7250/19705/65b7e8e0c2065___Yuldosheva%20S.Central%20European%20Management%20Journal.pdf
18. Azizovna Y.S. On the Development of Expressive Learning Skills. International Journal on Integrated Education (IJIE) 6 (No. 5 (2023)), 313-316 https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE/article/view/4444
19. Azizovna Y.S. Understanding the text in the development of reading literacy. Vegueta. Anuario de la Facultad de Geografía e Historia . 2022/12/22 373-379 eISSN: 2341-1112 DOI: 10.5281/zenodo.7